



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR MA’NAVYI QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUV

Utanov Utkir Qurbonovich

Samarqand davlat pedagogika instituti, dotsent

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasini shakllantirish jarayoni tizimli yondashuv asosida tadqiq etilgan bo‘lib, pedagogik tizimning strukturaviy va funksional komponentlari tahlil qilinadi. Muallif ma’naviyatni madaniyat rivojining natijasi hamda shaxsning ichki va tashqi uyg‘unligi sifatida talqin etib, uning kognitiv, emotsional va aksiologik tarkibiy qismlarini ochib beradi. Ma’naviy qiyofani rivojlantirishning metodologik asosi sifatida tizimli tahlilning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari hamda kasbiy mahorat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, ma’naviy qiyofa, tizimli yondashuv, pedagogik tizim, ma’naviyat, kasbiy kompetensiya, qadriyat, metodologiya, integrativ sifat, pedagogik qobiliyat.

СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ДУХОВНОГО ОБЛИКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Утанов Уткир Курбанович

Самаркандский государственный педагогический институт, доцент

Аннотация

В статье исследуется процесс формирования духовного облика будущих учителей на основе системного подхода, анализируются структурные и функциональные компоненты педагогической системы. Автор интерпретирует духовность как результат развития культуры и гармонии внутреннего и внешнего мира личности, раскрывая её когнитивный, эмоциональный и аксиологический компоненты. В качестве методологической основы развития духовного облика показаны научно-педагогические возможности системного анализа и неразрывная связь с профессиональным мастерством.

Ключевые слова: будущий учитель, духовный облик, системный подход, педагогическая система, духовность, профессиональная компетенция, ценность, методология, интегративное качество, педагогические способности.

A SYSTEMIC APPROACH TO DEVELOPING THE SPIRITUAL PROFILE OF FUTURE TEACHERS

Utanov Utkir Kurbonovich

Samarkand State Pedagogical Institute, Associate Professor

Abstract

The article explores the process of forming the spiritual image of future teachers based on a systemic approach, analyzing the structural and functional components of the pedagogical system. The author interprets spirituality as a result of cultural development and the harmony between the internal and external self of the individual, revealing its cognitive, emotional, and axiological components. The scientific and pedagogical potential of systemic analysis and its intrinsic link with professional excellence are demonstrated as the methodological basis for developing the spiritual image.

Keywords: future teacher, spiritual image, systemic approach, pedagogical system, spirituality, professional competence, value, methodology, integrative quality, pedagogical abilities.

Ma’naviy yetuk bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni ilmiy asoslash, uning tarkibiy qismlarini aniqlash hamda tashkiliy-hamkorlik tamoyillarini belgilash metodologik izlanishni talab etadi. Metodologik asoslar deganda muayyan ilmiy yondashuvlar, konseptual tamoyillar, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti haqidagi umumiy nazariy qarashlar tizimi tushuniladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tavsiflaydigan eng muhim ijtimoiy belgilaridan biri bu ma’naviyatdir. Aynan ma’naviyat pedagog shaxsining uyg‘unligi, boyligi, yaxlitligi, uning atrof-muhit va odamlar bilan munosabatlari ko‘lamini, ijodiy o‘zini namoyon etish darajasini hamda faoliyatga layoqatini ifodalaydi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va ijodiy kuchlarini ma’naviyatda

mujassamlashtirar ekan, shaxsiy rivojlanishi uchun zarur manbani aynan madaniyatdan topadi.

Respublikamizda pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilish, ta'lim istiqbollarini belgilashning konseptual asoslari M. Tojiyev, Z. Muxammadov, R. Samarov, T. Alimardonov, S. Jo'rayev, G. Gregoriy, S. Turg'unov, B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva, D. Yunusova, M. Keldiyorova, A. Abdullayev, V. Karimova, G. G'afurova, Sh. Turdiyev, N. Muslimov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan Yu. Surmin, A. Antonov, O. Apolov, F. Tarasenko, F. Peregudov, B. Gerasimov, L. Viktorova, E. Korchehen, E. Vinograylarning ilmiy izlanishlarida tizimli tahlilning nazariy va metodologik asoslari, tizim nazariyasining umumiy yo'nalishlari hamda tizimlar klassifikatsiyasi o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan L. fon Bertalanfi, K. Boulding, U. Eshbi, E. S. Bauer, E. A. Lodatko, V. V. Drujinin, T. Parsons, B. Gary, J. Nielsen, Yu. Z. Kushner, I. Lisev, I. Blauberqlar tomonidan pedagogik tizimli tahlil nazariyasi, tizim tushunchasining shakllanishi va fan rivoji mantig'i bilan bog'liq qonuniyatlarning nazariy asoslari yoritilgan.

Mazkur tadqiqotda ham bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy qiyofasini rivojlantirishda tizimli yondashuvga tayandik.

Ma'naviy qiyofa bu ruhiy kuchlar madaniyati bo'lib, u aqlni tartibga soladi, axloqiy, estetik va bilish ehtiyojlarini shakllantiradi hamda shaxsning ijtimoiy-madaniy subyekt sifatidagi ehtiyojlarini aks ettiradi. Insonda rivojlangan ma'naviy ehtiyojlar, haqiqatga intilish, ezgulik va go'zallikni yaratish istagi hayot mazmuniga aylanganida, bu holat "ma'naviyat" tushunchasi bilan ifodalanadi. Ma'naviyat axloqiylik, insonparvarlik, his-tuyg'ularni boshqara olish qobiliyati va tarixiy madaniy-tarbiyaviy jarayonda shakllangan sifatlar yig'indisidir. Demak, ma'naviyat madaniyat rivojining natijasi sifatida qaraladi.

Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy qiyofasi uning kasbiy-pedagogik tuzilmasi tarkibidagi murakkab, integrativ sifat bo'lib, shaxsiy ehtiyojlar, ijodiy imkoniyatlar hamda ma'naviy-tarbiyaviy faoliyatga psixologik-akmeologik tayyorgarlikni o'zida mujassamlashtiradi. Ma'naviy qiyofa insonni shakllantiruvchi kuch sifatida uning ruhiy olamini yangilash jarayonini ifodalaydi. Bu esa ikki tomonlama dialektik munosabatni namoyon etadi: bir tomondan, shaxsning ma'naviy madaniyati rivoji ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ana shu madaniy muhitni shaxsning o'zi ham yangilaydi va shakllantiradi.

Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy qiyofasini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni shakllantirishda tizimli yondashuv tayanch metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tizimli yondashuv ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyati hamda qonuniyatlarini yagona pedagogik tizim sifatida o'rganishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvdir. U dunyoqarash va ilmiy tushunchalar tizimini shakllantirishga, ona tilida va bir yoki bir nechta xorijiy tillarda tizimli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq chora-tadbirlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, shaxsning ijodiy rivojlanish mexanizmini shakllantirishga yordam beradi.

Mashhur pedagog V. N. Soroka-Rosinskiy 1930-yillardayoq turli qobiliyatlarning oddiy yig'indisi bo'lajak o'qituvchining haqiqiy salohiyati haqida to'liq tasavvur bera olmasligini ta'kidlab, "Bo'lajak o'qituvchi fazilatlar bilan to'ldirilgan matras emas", degan edi. Shu bois pedagogik qobiliyatlarni o'rganishda tizimli yondashuv alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Bo'lajak o'qituvchi faoliyatiga tizimli yondashuvni ishlab chiqishda N. V. Kuzmina, N. A. Aminov va T. M. Xrustalyova ishlarini alohida qayd etish lozim. N. V. Kuzmina pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyatlarni o'rganishda tizimli yondashuvni qo'llaydi. Uning talqiniga ko'ra, tizim o'zaro bog'langan elementlar majmuasi bo'lib, ular barqaror yaxlitlik va butunlikni tashkil etadi hamda integrativ xususiyat va qonuniyatlarga ega bo'ladi.

Kuzmina pedagogik tizimning quyidagi besh asosiy strukturaviy elementini ajratadi:

- maqsadlar;
- ta'lim mazmuni;
- pedagogik kommunikatsiya vositalari;
- o'quvchilar;
- bo'lajak o'qituvchilar.

Shuningdek, u pedagogik tizimning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlovchi besh funksional komponentni ko'rsatadi:

- **gnostik komponent** – bilimlarni aniqlash va tahlil qilish qobiliyati;
- **loyihalovchi komponent** – ta'lim jarayonini rejalashtirish va modellashtirish salohiyati;

- **konstruktiv komponent** – ta’lim mazmuni, vositalari va usullarini izchil tashkil etish;
- **kommunikativ komponent** – samarali muloqot va pedagogik ta’sir ko’rsatish qobiliyati;
- **tashkiliy komponent** – ta’lim jarayonini to’g’ri tashkil etish va o’quvchilar faoliyatini boshqarish ko’nikmasi.

N. V. Kuzmina bo’lajak o’qituvchi rivojlanishida ikki darajani ajratadi. Birinchisi, perseptiv-refleksiv qobiliyatlar darajasi bo’lib, u o’quvchini tushunish, sezish va uning holatini anglay olish bilan bog’liq. Bu jihat pedagogik empatiyaning asosini tashkil etadi. Ikkinchisi esa loyihalovchi pedagogik qobiliyatlar darajasi bo’lib, u o’quvchiga pedagogik ta’sir ko’rsatish usullarini oldindan ko’ra olish va loyihalash qobiliyatini ifodalaydi.

Muallif pedagogik qobiliyatlarning uchta rivojlanish darajasini ham ko’rsatadi:

1. pedagogik faoliyat standartlarini takrorlay olish darajasi;
2. faoliyatni mustaqil loyihalash qobiliyati;
3. nafaqat pedagogik faoliyatni, balki o’quvchining shaxsiy rivojlanishini ham loyihalash darajasi.

Bo’lajak o’qituvchining maxsus qobiliyatlari va pedagogik iqtidorini o’rganishda tizimli yondashuv V. S. Merlin asos solgan integral individuallik maktabi an’alariga tayanadi. Bu yondashuvda pedagogik qobiliyatlar asab tizimi xususiyatlari, temperament, shaxs fazilatlarini va tashqi omillar, masalan, o’qitiladigan fan bilan bog’liq holda tahlil qilinadi.

T. M. Xrustalyova bo’lajak o’qituvchi qobiliyatlari tuzilmasida ikki pog’onali kichik tizimni ajratadi:

- umumpedagogik qobiliyatlar;
- fan doirasidagi maxsus qobiliyatlar.

Boshqacha aytganda, matematika va tarix o’qituvchilarining umumiy pedagogik qobiliyatlari o’xshash bo’lishi mumkin, ammo ularning fan xususiyatidan kelib chiqadigan individual farqlari kuchliroq namoyon bo’ladi. T. M. Xrustalyovanning empirik tadqiqotlari integral individuallik va turli fanlar bo’yicha mutaxassislar qobiliyatlari o’zaro farqlanishini ko’rsatadi. Shuning uchun qobiliyatlarni fan xususiyatidan kelib chiqib rivojlantirish zarur. Masalan, gumanitar va tabiiy fanlar o’qituvchilari uchun emotsional ostuzilma, ya’ni pedagogik sezuvchanlik muhim bo’lsa, aniq fanlar o’qituvchilari uchun ratsional ostuzilma, ya’ni pedagogik yo’naltirilganlik ustun ahamiyat kasb etadi.

Bo’lajak o’qituvchining kasbiy shakllanishi chuqurlashgani sari, uning maxsus qobiliyatlari shakllanishida shaxsning o’rni ortib boradi. Ya’ni yetuk o’qituvchi qobiliyatlari organizm yoki temperament xususiyatlariga kamroq, kasbga, o’quvchilarga va o’zini kasbiy shaxs sifatida anglashga ko’proq bog’liq bo’ladi.

Tizimli yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchining ma’naviy qiyofasining quyidagi asosiy komponentlarini ajratish mumkin:

Bilim (kognitiv komponent). Bu bo’lajak o’qituvchining ma’naviy-madaniy bilim darajasi, kasbiy-axloqiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy-madaniy muhitga doir tushunchalarini o’z ichiga oladi. Mazkur bilimlar pedagogga axloqiy jihatdan ongli qarorlar қабул қилиш va kasbiy faoliyatini ma’naviy tamoyillar asosida tashkil etish imkonini beradi.

His-tuyg’u (emotsional-kommunikativ komponent). Bu bo’lajak o’qituvchining axloqiy sezuvchanligi, kasbiy hamdardligi, o’quvchi va jamoaga nisbatan empatiya tuyg’usining rivojlanganligini anglatadi. His-tuyg’ular pedagogik madaniyat va insoniy fazilatlarining ifodasi sifatida tarbiyaviy jarayonda samimiyligini va ishonch muhitini yaratadi.

Faoliyat (praktik komponent). Bu bo’lajak o’qituvchining ma’naviy qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo’llashi, axloqiy me’yorlarni shaxsiy namuna sifatida namoyon etishini bildiradi. Ma’naviyatning amaliy ifodasi faqat so’zda emas, balki kundalik harakat va qarorlarda ko’zga tashlanadi.

Motivatsiya (aksiologik komponent). Bu bo’lajak o’qituvchining kasbiy e’tiqodi, o’z ishiga sadoqati, tarbiyaviy faoliyatga bo’lgan ichki ehtiyoji va mas’uliyat hissini ifodalaydi. Motivatsion daraja pedagogning ma’naviy qiyofasidagi asosiy harakatlantiruvchi kuchdir.

Kommunikatsiya (ijtimoiy-kommunikativ komponent). Bu bo’lajak o’qituvchining ijtimoiy aloqalar madaniyati, o’quvchi, ota-ona va jamiyat bilan samarali muloqot qila olish, axloqiy va nazokatli muomala yuritish ko’nikmalarini qamrab oladi.

Tizimli yondashuv bo’lajak o’qituvchining kommunikativ madaniyatini uning ma’naviy qiyofasining ajralmas qismi sifatida talqin etadi. Mazkur yondashuv bo’lajak o’qituvchi ma’naviy qiyofasini ko’p darajali va murakkab tizim sifatida tahlil qilish, shaxsiy va kasbiy fazilatlar o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni aniqlash, ma’naviy qiyofa tarkibiy qismlarining o’zaro ta’sir mexanizmlarini ochib

berish imkonini yaratadi. Shu tariqa bo'lajak o'qituvchi shaxsining ichki dunyosi — qadriyatlar, his-tuyg'ular, e'tiqodlar bilan tashqi ko'rinishlari — faoliyat, muloqot va ijtimoiy aloqalar bir butun tizimda anglashiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchining ma'naviy qiyofasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv zamonaviy pedagogikaning murakkab, ko'p qirrali va ko'p darajali ilmiy asoslashni talab qiladigan yo'nalishidir. Tahlil qilingan tizimli yondashuv paradigmalari bo'lajak o'qituvchi shaxsini zamonaviy ilmiy qarashlar asosida shakllantirish, uni nazariy jihatdan asoslash va amaliyotga joriy etish uchun muhim ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сорокоумова Е. А. Педагогическая психология. — СПб.: Питер, 2009.
2. Методы системного педагогического исследования: учеб. пособие / под ред. Н. В. Кузьминой. — М.: Народное образование, 2002.
3. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. — М.: Высшая школа, 1990.
4. Мерлин В. С. Очерк интегрального исследования индивидуальности. — М.: Педагогика, 1986.
5. Хрусталева Т. М. Специальные способности учителя в интегральном исследовании индивидуальности: автореф. дис. ... д-ра психол. наук. — Пермь, 2004.
6. Kurbanovich U. U. The role of excursions to spiritual places in the development of the spirituality of the younger generation // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. — 2021. — Vol. 11, No. 9. — P. 699–702.
7. Qurbonovich U. U. The role of creative aspects in the work of future music teachers // *World Bulletin of Social Sciences*. — 2022. — Vol. 9. — P. 203–206.
8. Kurbanovich U. U. Types and characteristics of cognitive processes // *JournalNX*. — P. 168–170.
9. Qurbonovich U. U., Mamarajabovich A. I. Methods for increasing motivation and learning efficiency through pedagogical approaches in physical education classes // *American Journal of Social Science*. — 2025. — Vol. 3, No. 5. — P. 91–95.
10. Xudoynazarovna Q. O., Qurbonovich U. U. A comparative analysis of the main motivations for increasing the qualification of teacher-women and teacher-male // *International Journal of Early Childhood Special Education*. — 2022. — Vol. 14, No. 3.
11. Xudoynazarovna Q. O., Qurbonovich U. U. Development of teacher's spiritual image // *International Journal of Early Childhood Special Education*. — 2022. — Vol. 14, No. 6.
12. Qurbonovich U. U. Factors of development of teacher's spiritual image // *Journal of Positive School Psychology*. — 2022. — Vol. 6, No. 9.
13. Qurbonovich U. U. Possibilities of Sibelius note text editor program in music teaching. — 2023.